

Buxoro viloyatida Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy ko'rsatkichlari


2025-yil yanvar-iyun oylari uchun

- I. Buxoro viloyatida kichik tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot
- II. Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar
- III. Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari
- IV. Kichik tadbirkorlik subyektlari transport faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari
- V. Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari natijalari
- VI. Kichik tadbirkorlik subyektlari statistikasi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Buxoro viloyatida kichik tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot

2025- yilning 1-iyul holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni 24 335 tani tashkil etdi.

Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni dinamikasi¹




¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022- yil 20-apreldagi PF-113-son Farmoniga asosan, davlat organlarida mavjud ma'lumotlar bazalarining dolzarbligini va statistik axborotlarning bir xilligini ta'minlash maqsadida Soliq qo'mitasi, Statistika agentligi va Adliya vazirligining davlat ro'yxatidan o'tgan yuridik shaxslar haqidagi ma'lumotlar bazalari to'liq xatlovdan o'tkazildi va aniqlangan farqlar birlashtirildi

Hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

	2024- yil yanvar-iyun holatiga, birlik	2025-yil yanvar-iyun holatiga, birlik
Buxoro sh.	6 558	6561
G'ijduvon tumani	2 648	2521
Romitan tumani	2 500	2245
Jondor tumani	2 207	2004
Buxoro tumani	1 855	1833
Vobkent tumani	1 655	1501
Shofirkon tumani	1 533	1454
Kogon tumani	1 484	1344
Peshku tumani	1 472	1305
Qorako'l tumani	1 267	1146
Olot tumani	1033	1027
Kogon sh	902	869
Qorovulbozor tumani	615	525

Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:


[Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni](#)

II. Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

2025- yilning yanvar-iyunida 2 229 ta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi.

2025- yilning yanvar-iyunida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxona va mikrofirma savdo sohasida 779 ta, qishloq o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 513 ta, sanoatda 198 ta, boshqa xizmatlarda 197 tani tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni



2025- yilning yanvar-iyunida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxona va mikrofirma savdo sohasida 779 ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 513 ta, sanoatda 198 ta va boshqa xizmatlarda 197 tani tashkil etilgan.

Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

	2024- yil yanvar-iyun oylarida, birlik	2025-yil yanvar-iyun oylarida, birlik
Buxoro sh.	510	624
Romitan tumani	275	261
G'ijduvon tumani	216	194
Qorako'l tumani	148	163
Buxoro tumani	191	153
Shofirkon tumani	204	142
Jondor tumani	220	115
Kogon tumani	136	112
Vobkent tumani	200	111
Olot tumani	226	107
Peshku tumani	180	106
Qorovulbozor tumani	52	73
Kogon sh	69	68

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni \(oylik\)](#)


[Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni \(yillik\)](#)

III. Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi dinamikasi

2025- yilning yanvar-iyunida YAHM tarkibida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 70,5 % ni tashkil qilib, 2024- yilning tegishli davriga nisbatan 0,2 % kamaydi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi dinamikasi



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi


2025- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng yuqori ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 98,6% qurilishda – 90,0 %, xizmatlar sohasida – 68,1 % va sanoatda – 44,0 % ni tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan sanoat ishlab chiqarishi faoliyati

2025-yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 10 250,9 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi yoki sanoat ishlab chiqarishi umumiy hajmining 44,0 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 124,2 % ni tashkil qildi.

Tumanlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotlaridagi eng yuqori ulushi Shofirkon tumani (93,5 %), Jondor tumani (87,9 %), Vobkent tumani (77,4 %) Kogon tumani (74,7 %), va Qorako'l tumani (73,0 %) hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat ishlab chiqarishi hajmi va jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi dinamikasi



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Kichik tadbirkorlik subyektlarining ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari \(xizmatlari\) hajmi \(choraklik\)](#)


[Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari \(xizmatlari\)dagi ulushi \(choraklik\)](#)

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish faoliyati

2025- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi 8 352,7 mlrd so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining 90,0 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 108,8 % ni tashkil qildi.

Tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari umumiy hajmidagi eng yuqori ulushi Peshku tumani (97,8 %), Buxoro tumani (97,2 %) va Vobkent tumani (95,8 %) hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari hajmi \(choraklik\)](#)

[Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami qurilish ishlaridagi ulushi \(choraklik\)](#)

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya faoliyati


2025- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 10 089,9 mlrd so'mni yoki umumiy hajmidagi ulushi 53,0 % ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 67,5 % ni tashkil qildi.

Tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmidagi eng yuqori ulushi Olot (95,3 %), Kogon shahri (88,6 %), G'ijduvon (89,9 %) va Vobkent (86,1 %) tumanlariga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalari hajmi \(choraklik\)](#)
[Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalardagi ulushi \(choraklik\)](#)




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi faoliyati

2025- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlikning qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligidagi hajmi 17 237,4 mlrd so'mni yoki umumiy hajmidagi ulushi 98,6 % ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 104,1 % ni tashkil qildi.

Tumanlar kesimida kichik tadbirkorlikning qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmidagi eng yuqori ulushi G'ijduvon tumani (99,5 %), Olot tumani (99,3 %), Buxoro tumani (99,2 %) Peshku tumini (99,2 %) va Vobkent tumani (99,2 %) hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan yetishtirilgan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsuloti hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:


[Kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulotlarini \(xizmatlarini\) ishlab chiqarish hajmi \(choraklik\)](#)
[Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami qishloq o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulotlarini \(xizmatlarini\) ishlab chiqarishdagi ulushi \(choraklik\)](#)

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan chakana savdo faoliyati

2025- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlikning chakana savdo aylanmasi hajmi 9 669,1 mlrd so'mni yoki umumiy hajmining 90,6 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 107,8 % ni tashkil qildi.

Tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasidagi eng ko'p ulushi Qorovulbozor tumani (99,7 %), Rometan tumani (99,5 %), Vobkent tumani (99,1 %) va Shofirkon tumani (99,0%), tumanlariga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari chakana savdo aylanmasining hajmi va jami savdo aylanmasidagi ulushi dinamikasi



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:


[Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo aylanmasi hajmi \(choraklik\)](#)
[Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami chakana savdo aylanmasidagi ulushi \(choraklik\)](#)

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan xizmatlar faoliyati

2025- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlikning xizmatlar sohasidagi hajmi 12 916,5 milliard so'mni yoki umumiy hajmining 68,1 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 113,3 % ni tashkil qildi.

Tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmatlar hajmidagi eng ko'p ulushi Olot tumani (81,2 %), Kogon tumani (80,5 %), G'ijduvon tumani (80,3 %), Jondor tumani (79,7 %) va Vobkent tumani (78,0 %) tumanlariga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi



Название

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Kichik tadbirkorlik subyektlarining ko'rsatilgan xizmatlar hajmi \(choraklik\)](#)


[Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami ko'rsatilgan xizmatlardagi ulushi \(choraklik\)](#)

[Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati](#)

2025- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi 75,5 million AQSH dollarini yoki umumiy eksport hajmining 46,4 % ini tashkil etdi.

2025- yilning yanvar-iyunida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Kogon shahrida – 94,6 %, Buxoro tumanida – 92,2 %, Peshku tumanida – 81,2 %, Jondor tumanida – 80,4 % ni tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (tovar, ish va xizmatlar) eksporti hajmi va jami eksport hajmidagi ulushi dinamikasi



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:


[Kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulot \(ishlar, xizmatlar\) eksporti hajmi \(choraklik\)](#)
[Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami mahsulot \(ishlar, xizmatlar\) eksportidagi ulushi \(choraklik\)](#)

Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

2025- yilning yanvar- iyunida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi 246,0 million AQSH dollarini yoki jami importning 44,1 % ini tashkil etdi.

2025- yilning yanvar-iyunida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importga nisbatan eng yuqori ulushi Kogon shahrida – 100,0 %, Jondor tumanida–100,0 %, Shofirkon tumanida – 99,7 %, Qorako'l tumanida–99,1 % va Vobkent tumanida–93,6 %ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulot (tovar, ish va xizmatlar) import hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulot \(ishlar, xizmatlar\) importi hajmi \(choraklik\)](#)
[Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami mahsulot \(ishlar, xizmatlar\) importidagi ulushi \(choraklik\)](#)

IV. Kichik tadbirkorlik subyektlari transport faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining yuk tashish umumiy hajmidagi ulushi


2025- yilning yanvar-iyunida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 92,9 % ni tashkil etdi. 2024- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 103,9 % ni tashkil qildi.

2025- yilning yanvar-iyunida, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 78,7 % ni tashkil etgan bo'lib, 2024-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 105,2 % ni tashkil qildi.

2025- yilning yanvar-iyunida, avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 99,7 % ni tashkil etib, 2024- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 102,5 % ni tashkil qildi.

2025- yilning yanvar-iyunida, avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 99,0 % ni tashkil etib, 2024- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 101,2 % ni tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami transport faoliyatlaridagi ulushlari dinamikasi



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

- [Kichik tadbirkorlik subyektlarining yuk tashish hajmi \(choraklik\)](#)
- [Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami yuk tashishdagi ulushi \(choraklik\)](#)
- [Kichik tadbirkorlik subyektlarining yuk aylanmasi hajmi \(choraklik\)](#)
- [Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami yuk aylanmasidagi ulushi \(choraklik\)](#)
- [Kichik tadbirkorlik subyektlarining yo'lovchi tashish hajmi \(choraklik\)](#)
- [Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami yo'lovchi tashishdagi ulushi \(choraklik\)](#)
- [Kichik tadbirkorlik subyektlarining yo'lovchi aylanmasi hajmi \(choraklik\)](#)
- [Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami yo'lovchi aylanmasidagi ulushi \(choraklik\)](#)


V. Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari natijalari

Umumiy iqtisodiy holatining baholanishi (korxonaning joriy holati bo'yicha)

Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkazilgan tanlanma kuzatuv ma'lumotlariga ko'ra kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalar ulushi 2021-yilning yanvar-iyunida 22,3 % ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2025- yilning yanvar-iyunida esa 31,6 % ga yetgan yoki 2021- yilning yanvar-iyunida nisbatan 9,3 birlikka ko'paygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning ulushi 2021- yilning yanvar-iyunida 74,4 % bo'lgan bo'lsa. Bu ko'rsatkich 2025- yilning yanvar-iyunida 63,7 % ni tashkil qildi. O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2021- yilning yanvar-iyunida 3,3 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2025- yilning yanvar-iyuniga kelib, bu ko'rsatkich 4,7 % ga yetgan.

Kichik korxona va mikrofirmalarning yanvar-iyun oylarida umumiy iqtisodiy holatining baholanishi dinamikasi (korxonaning joriy holati bo'yicha)




Umumiy iqtisodiy holatning baholanishi (yaqin uch oyda o'zgarishlar istiqboli)

Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari to'g'risida o'tkazilgan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini yaqin uch oyda o'zgarishlar istiqboli yaxshilanadi deb baholagan korxonalar ulushi 2021- yilning yanvar-iyunida 60,2 % ni tashkil etgan. Bu ko'rsatkich 2025- yilning yanvar-iyunida 46,4 % ni tashkil qildi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o'zgarmaydi deb baholagan korxonalarning ulushi 2021- yilning yanvar-iyunida 37,8 % bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2025- yilning yanvar-iyunida 51,4 % yoki 13,6 birlikka oshgan. O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashadi deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2021- yilning yanvar-iyunida 2,0 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2025- yilning yanvar-iyuniga kelib, bu ko'rsatkich 2,2 % ni tashkil qildi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning yanvar-iyun oylarida umumiy iqtisodiy holatining baholanishi dinamikasi (yaqin uch oyda o'zgarishlar istiqboli)




Kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatni baholash


Kichik korxona va mikrofirmalarning 2025- yilning II choragida o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, joriy davrda iqtisodiy vaziyatini qulay deb baholagan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi xizmatlar sohasida – 37,0 % sanoatda – 32,7 % ni, savdoda – 30,3 % ni va ni tashkil etdi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 77,8 % ni, qurulishda – 70,5 % ni va Savdo sohasida – 65,7 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi sanoatda – 8,2 % ni, xizmatlar sohasida – 4,8 % va qurulishda – 4,2 % ni tashkil etdi.



Biznesga ishonch muhitini baholash (o'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar)



VI. Kichik tadbirkorlik subyektlari statistikasi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Tadbirkorlik faoliyati (tadbirkorlik) – tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o'zi tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir.

Tadbirkorlik faoliyati subyektlari (tadbirkorlik subyektlari) belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tgan hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslardir.

Tadbirkorlik subyektlari o'z faoliyatlarini muvofiqlashtirish, shuningdek, o'z huquqlari va manfaatlarini ifoda etish hamda himoya qilish maqsadida, notijorat tashkilotlar bo'lgan uyushmalarga (ittifoqlarga) va boshqa birlashmalarga birlashishi mumkin.

Metama'lumot uchun havola:

<https://Buxstat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/2977/Korxonalar-va-tashkilotlar-soni.pdf>

<https://Buxstat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1918/Kichik-biznes-korsatkichlari.pdf>

<https://Buxstat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1917/Kichik-biznesning-tarmoqlar-bo-yicha-ulushi.pdf>

Tayyorlash uchun mas'ul:

Tadbirkorlik subyektlarini
kuzatuv bo'limi

Ijrochi:

I.Shokirov
65-223-81-96 (8030)